

ERISTIK DISKURSDA KOMMUNIKATIV NIYATNING O’RNI VA ROLI

Karimova Madina Saydulla qizi

Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

karimovamadina398@gmail.com

Tel: +998 979927687

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21133360>

Annotatsiya. Mazkur maqolada eristik diskursning asosiy pragmatik mezonlari sifatida kommunikativ niyat va uning strategik tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqotda eristik muloqotni boshqa bahs-munozara shakllaridan farqlovchi muhim omil sifatida g'alabaga yo'naltirilgan niyatning o'rni yoritiladi. Nutqiy aktlar nazariyasi, intensionallik konsepsiyasi, relevantlik nazariyasi hamda strategik kommunikatsiya tamoyillari asosida eristik niyatning lingvopragmatik mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, eristik diskursda ochiq va yashirin kommunikativ maqsadlarning o'zaro munosabati, manipulyativ ta'sir mexanizmlari hamda kommunikativ ustunlikka erishish strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari eristik diskursni uning tashqi shakliy belgilariga emas, balki kommunikativ maqsad va niyatlar tizimiga tayangan holda tavsiflash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: eristik diskurs, kommunikativ niyat, intensionallik, strategik kommunikatsiya, nutqiy akt, manipulyatsiya, kommunikativ ustunlik, g'alaba strategiyasi.

Аннотация. В данной статье коммуникативное намерение и его стратегическая природа рассматриваются как основной прагматический критерий эристического дискурса. Особое внимание уделяется роли намерения, ориентированного на достижение победы, как важнейшему фактору, отличающему эристическую коммуникацию от других форм спора и дискуссии. На основе теории речевых актов, концепции интенциональности, теории релевантности и принципов стратегической коммуникации раскрывается лингвопрагматическая сущность эристического намерения. Кроме того, анализируются взаимоотношения между явными и скрытыми коммуникативными целями, механизмы манипулятивного воздействия и стратегии достижения коммуникативного превосходства в эристическом дискурсе. Результаты исследования показывают, что эристический дискурс следует характеризовать не по его внешним формальным признакам, а на основе системы коммуникативных целей и намерений.

Ключевые слова: эристический дискурс, коммуникативное намерение, интенциональность, стратегическая коммуникация, речевой акт, манипуляция, коммуникативное превосходство, стратегия победы.

Annotation. This article examines communicative intention and its strategic nature as the primary pragmatic criterion of eristic discourse. The study highlights the role of victory-oriented intention as a key factor distinguishing eristic communication from other forms of debate and discussion. Drawing on Speech Act Theory, the concept of intentionality, Relevance Theory, and the principles of strategic communication, the linguopragmatic essence of eristic intention is explored. The article also analyzes the relationship between explicit and implicit communicative goals, mechanisms of manipulative influence, and strategies for achieving communicative dominance in eristic discourse. The findings demonstrate that eristic discourse should be characterized not by

its external formal features but by the system of communicative goals and intentions underlying the interaction.

Keywords: eristic discourse, communicative intention, intentionality, strategic communication, speech act, manipulation, communicative dominance, victory strategy.

Kirish. Eristik diskursni faqat uning tashqi ko’rinishlari – qo’pol leksika, baland ohang yoki hujumkor nutqiy vositalar orqali belgilash yetarli emas, chunki bu belgilar boshqa kommunikativ vaziyatlarda ham uchrashi mumkin. Shu bilan birga, eristik yo’nalish ayrim hollarda ochiq agressiyasiz, hatto muloyim va xushmuomala nutq shaklida ham namoyon bo’ladi. Demak, eristiklikni aniqlashda hal qiluvchi omil nutqning tashqi shakli emas, balki uning ortida turgan kommunikativ niyatdir. Agar muloqotning asosiy maqsadi haqiqatni birgalikda izlash yoki muammoni hal etish emas, balki raqib ustidan ustunlikka erishish, uni mag’lub etish yoki pozitsiyasini zaiflashtirish bo’lsa, u eristik xususiyat kasb etadi. Shu sababli yondashuv eristik diskursni tashqi jihatdan unga yaqin bo’lgan jonli bahs, keskin munozara yoki emotsional suhbat kabi kommunikativ hodisalardan aniq va ishonchli tarzda farqlashda samaralidir. O. Issers ta’biri bilan aytganda ham har qanday nutqiy strategiya – bu so’zlovchining muayyan kommunikativ maqsadiga erishish uchun tanlagan harakatlar majmuidir; strategiyani tushunish esa avvalo uning ortidagi motivlarni anglashni talab qiladi. [1,62]

Nutqiy aktlar nazariyasi eristik niyatning mohiyatini tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi. J. Ostin nutqni lokutiv, illokutiv va perlokutiv qatlamlarga ajratib, nutqning mazmuni emas, balki u orqali bajarilayotgan harakat markaziy o’rin tutishini asoslab bergan edi. Uning talqinida illokutiv kuch so’zlovchining kommunikativ maqsadi bilan belgilanadi. [2,94] Shunga ko’ra, nutq tasodifiy hodisa emas, balki maqsadga yo’naltirilgan intensional faoliyat shakli hisoblanadi.

Asosiy qism. Intensionallik nazariyasi esa nutqiy niyatning falsafiy asoslarini ochib beradi. Inson ongining barcha holatlari – ishonch, istak, maqsad va niyatlar muayyan obyekt yoki vaziyatga qaratilgan bo’ladi. Nutqiy niyat ana shu umumiy intensionallikning lisoniy aksidir. [3,1] Eristik diskursda ushbu jarayon yanada murakkab tus oladi. Bunda so’zlovchi asl maqsadini ochiq ifodalash o’rniga uni boshqa kommunikativ niyat ortiga yashiradi. Masalan, ustunlikka erishish yoki raqibni zaiflashtirish istagi yordam ko’rsatish, maslahat berish yoki hamkorlikka chaqirish ko’rinishida taqdim etilishi mumkin. Ichki maqsad bilan uning tashqi ifodasi o’rtasida yuzaga keladigan ushbu tafovut kezi kelganda manipulyativ ta’sirning psixologik va falsafiy asosini tashkil etadi.

Eristik diskursni tahlil qilishda relevantlik nazariyasining imkoniyatlari ham salmoqlidir. D. Sperber va D. Uilson kommunikatsiyada ikki turdagi niyatni farqlaydilar: axborot niyati va kommunikativ niyat. Birinchisi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazishga qaratilgan bo’lsa, ikkinchisi shu axborotni yetkazish maqsadining mavjudligini namoyon etishga xizmat qiladi. [4,46] Eristik muloqotda esa ko’pincha haqiqiy kommunikativ niyat yashirin qoladi. Tinglovchi nutqning yuzaki maqsadini qabul qiladi, biroq uning ortida yotgan strategik maqsadni darhol anglamasligi mumkin.

Y. Habermas inson faoliyatining kommunikativ va strategik shakllarini farqlaydi. Kommunikativ dinamizmo’zaro tushunish va kelishuvga erishishga xizmat qilsa, strategik dinamizm suhbatdoshning xatti-harakatlari va qarorlariga ta’sir o’tkazish orqali maqsadga erishishni ko’zlaydi. [5,285]

J.Ostin tilning konstativ emas, balki performativ tabiatini ochib berdi: gapirish – bu nafaqat biror narsa haqida xabar berish, balki ayni paytda biror harakatni – va’da berish, buyurish, ayblash, tahdid qilish bajarishdir.[2,120] J.Serl nutqiy aktning muvaffaqiyatli bo’lishi uchun zarur shartlarni belgiladi va har bir nutqiy aktning negizida so’zlovchining muayyan niyati (illokutiv maqsad) yotishini asoslab berdi. [3.29]

Shuni alohida ta’kidlash joizki, niyat – eristik diskursni boshqa, tashqi ko’rinishi o’xshash bo’lgan diskurs turlaridan ajratuvchi asosiy mezonlardan biridir. Masalan, yuqoridagi boblarda ta’kidlab o’tganimizdek, ilmiy bahs (munozara) ham, eristik tortishuv (jadal) ham tashqi jihatdan o’xshash – ikkalasida ham qarama-qarshi fikrlar to’qnashadi; ularning niyati tubdan farq qiladi: ilmiy bahsning niyati – haqiqatni birgalikda izlash; eristik tortishuvning niyati – raqibni mag’lub etish.

Kommunikativ niyatning muhim xususiyatlaridan biri uning ko’p sathli va murakkab tuzilishga egaligidir. Real muloqot jarayonida so’zlovchi odatda yagona maqsad bilan cheklanmaydi; aksincha, uning nutqida o’zaro bog’liq bir necha niyatlar bir vaqtning o’zida namoyon bo’lishi mumkin. Bunda ochiq ifodalangan kommunikativ maqsad ko’pincha chuqurroq va yashirin strategik maqsadni niqoblash vazifasini bajaradi. Masalan, maslahat berish, yordam ko’rsatish yoki hamkorlikka undash kabi oshkora maqsadlar ortida suhbatdoshni chalg’itish, uning pozitsiyasini zaiflashtirish yoki kommunikativ ustunlikka erishish istagi yashirinishi mumkin.

Mana shu ko’p bosqichli tuzilma eristik diskursni murakkab pragmatik hodisaga aylantiradi. Tinglovchi, odatda, nutqning yuzaki maqsadini oson anglaydi, biroq uning ortida turgan asl niyatni aniqlash uchun qo’shimcha interpretativ faoliyat talab etiladi; bunda kontekst, nutqiy vaziyat, intonatsiya, leksik tanlov, implikaturalar hamda ishtirokchilarning o’zaro munosabatlari muhim ko’rsatkich vazifasini bajaradi.

Shuni ham qayd etish lozimki, eristik niyatning ildizi inson tabiatining chuqur ijtimoiy-psixologik qatlamlariga borib taqaladi. Inson – ijtimoiy mavjudot bo’lib, u doimo o’z mavqeyini, obro’sini va ta’sirini saqlash va oshirishga intiladi. Muloqotda bu intilish ba’zan raqobat va ustunlik kurashiga aylanadi: inson o’z fikrining, o’z shaxsining ustunligini isbotlashni istaydi. Eristik niyat – shu tabiiy ustunlik intilishining nutqiy ifodasidir. Sog’lom muloqot bu intilishni jilovlaydi va uni hamkorlik, hurmat doirasida saqlaydi; eristik muloqot esa, aksincha, bu intilishni jilovsiz qo’yib yuboradi va uni g’alaba istagiga aylantiradi. Shu sababli eristik niyat barcha madaniyat va tillarda uchraydi: u inson tabiatining umumiy xususiyatiga – ustunlik va e’tirof izlashga asoslanadi.

Eristik diskursda g’alaba tushunchasi o’ziga xos mazmunga ega bo’lib, uni odatiy musobaqa yoki o’yinlardagi g’alaba bilan tenglashtirib bo’lmaydi. Bu yerda asosiy maqsad haqiqatni aniqlash yoki eng asosli pozitsiyani himoya qilish emas, balki raqib ustidan ustunlikka erishishdir. Bu ustunlik mantiqiy dalillar orqali qo’lga kiritilishi mumkin, biroq eristik muloqotda bunga har doim ham rioya qilinmaydi. Zarur hollarda kamsitish, shaxsga hujum qilish, mavzudan chalg’itish, manipulyativ usullarni qo’llash yoki auditoriya hissiyotlariga ta’sir etish kabi strategiyalar ham ishga solinadi. Masalan:

“You don’t even know if her first name is Jane or Jean, ya goddam moron!” ... “You never want to discuss anything. That’s the way you can always tell a moron.” (J. D. Salinger, “The Catcher in the Rye” – Holden va Stradlater to’qnashuvi).

Holdenning motivi – yuzaki xushmuomalalik ostiga berkitilgan barqaror nafrat ustiga qurilgan. Stradlater bilan janjalda u kommunikativ niyatini ataylab oshkor qiladi: raqibni so’z bilan tahqirlab, urishga undaydi. Ma’lubiyatning oldindan kafolatlanmaganligi

ham ko‘rinadi – Holden hujum qiladi-yu, ammo natija teskari – jismoniy mag‘lubiyat. Niyat va perlokutiv natija o‘rtasidagi tafovutga ishora.

Xulosa. Eristik kommunikatsiyada muhim bo‘lgan jihat raqibning obyektiv ma’noda mag‘lub etilishi emas, balki uning mag‘lub bo‘lib ko‘rinishidir. Suhbatdoshning javobsiz qolishi, ikkilanishi, o‘z pozitsiyasini yetarlicha himoya qila olmasligi yoki auditoriya oldida noqulay vaziyatga tushishi ko‘pincha g‘alaba belgisi sifatida talqin qilinadi. Demakki, eristik muvaffaqiyatning mezoni mantiqiy asoslanganlikdan ko‘ra ko‘proq kommunikativ taassurot va psixologik ta’sir bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Issers O.C. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – 5-е изд. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. – С. 62–98.
2. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – P. 94–120.
3. Searle J.R. Intentionality: An Essay in the Philosophy of Mind. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 1–29.
4. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 1995. – P. 46–64.
5. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society. – Boston: Beacon Press, 1984. – P. 285–295